

**MAKTABGACHA YOSHDAGI O`G`IL BOLALAR SHORTIGI UCHUN
MODEL TANLASH, MODELLASH, ANDOZASINI TAYYORLASH**

Mirzaqulova Irodaxon Nabihevna

Farg'ona Shahar 1-sonli Politexnikum ta'lim ustalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi o`g`il bolalar shortigi uchun model tanlash, modellash, andozasini tayyorlash haqida to`liq ma'lumotlar keltirilgan..

Kalit so‘zlar: Gazlama, andoza, paxta va ipak tola, cho`ntak, gulfik, cho`ntak qirqmi, old bo'lak, Bo'ylama ip.

O`g`il bolalar kiyimining formalari va modalari tobora ko‘payayotganligi katta yoshdagi kishilar kiyimlarining turlari hamda formalarining ko‘payishi bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi bolalar kiyimining asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan biri uning funksionalligidir. Kiyimning funksionalligi kompleks tushuncha bo‘lib, kiyimning konstruktiv va estetik xarakteristikasini, unga qo‘yiladigan fiziologik, sotsial va texnologik talablarini o‘z ichiga oladi. Maktab yoshidagi bolalarning kiyimlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Maktab bolalarining kiyimlar garderobini mакtab formasidagi o‘quvchilar kiyimi bilan bir qatorda, sport kiyimlari tashkil etadi. Kundalik kiyimning turli uslubdagi formalari va qat-qatligi bilan xarakterlanadi. Ko‘proq to‘g‘ri bichimli tikilishi uning yeng o‘miziga o‘tqazib tikiladigan yoki reglan bichimli yoki kombinatsiyalashtirilgan bo‘lishi mumkin, cho‘ntaklar turli bo‘lishi mumkin.

Formalar universallashtirilishi natijasida beshta yosh guruhi o‘rniga ikki guruuh qoldirildi: 3 dan 12 yoshgacha va 12 dan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar guruhlari, 12 yoshgacha bo‘lgan davr modaga beparvo qaraladigan davr hisoblanadi. Bu guruhga mansub bolalarning kiyimlari qulay, shinam, maqsadga loyiq qilib tikilishi bilan birga, badiiy bezatiladi. Bu: aplikatsiya, kashta, kiyimni chiroyli ko‘rsatadigan rasmlar atrofdagi muhitni bilish vositalari hisoblanadi.

12 yoshdan katta boalalarning kiyimlari katta yoshdagi kishilarning kiyimlariga oz-ozdan o‘xhatila beriladi.

Bolalar modasida yangilik, birinchi navbatda, yangi turdagи kiyim assortimentlarini ko‘payishidir. Bolalar kiyimini loyihalashning asosiy yo‘nalishlaridan biri-kiyimning kombinatsiyalashtirilgan formasini hosil qilish bilan birga, ayrim buyumlarning o‘zaro almashuvchanligiga erishishdir.

Hozirgi kunda bolalar kiyimining yetakchi va asosiy bichimi to‘g‘ri bichimli kiyimdir; to‘g‘ri bichimning variantlari juda ko‘p.

Bolalarning keng tarqalgan kiyimi formasining to‘kisligi bilan ajralib turadi.

Kiyimning belga yopishib turish darajasi assortiment guruhlariga bog‘liq. Hozirgi vaqtda sovuq o‘tkazmaydigan material, qavilgan katta hajmli, yopishib turadigan formadagi kiyimlar keng tarqalgan.

Ularning yelka chizig‘i kengaytirilgan va yengillashtirilgan. Yenglari reglan va o‘tqazma bo‘ladi. Yengi o‘mizga o‘tqazib tikiladigan kiyimning o‘mizi pasaytirilgan va chuqurlashtirilgan. Koketkalari baland va kichik. Bel chizig‘i tabiiy o‘rnida. Bo‘laklar soni-juda kam; ular maqsadga loyiq va konstruktiv xarakterda.

Cho‘ntaklarga turlicha ishlov beriladi;

Yakka buyumlardan iborat komplekt kiyimlarning eng ko‘p tarqalgan turiga aylanmoqda; yilning fasliga, vaziyatga, qomatning o‘zgarishiga va boshqalarga qarab, bu buyumlardan boshqa turdag'i komplekt tuzish ham mumkin. O‘g‘il bolalar ko‘ylagi va kalta shimi 8-9-yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, yoqasi o‘tqazma yoqali. Old bo‘lak taqilmasi plankali bo‘lib, chap tarafida qoplama cho‘ntak joylashgan. Ko‘ylak yengi o‘tqazma yeng, yeng uchi plankali. O‘g‘il bolalar kalta shimi beli rezinkada, yon

qirqimida yon qirqimidagi qirqma cho‘ntak joylashgan. Gulfik bezak chok bilan tikilgan. O‘g‘il bolalar kalta shiminining etak qismiga planka qo‘yilgan.



shutterstock.com • 1969519009



shutterstock.com • 1973727443



shutterstock.com • 1970683304

O‘g‘il bolalar kiyimining chizmasini chizish uchun zarur hisoblash tartibi qo‘llaniladi. Bunda hisoblash, chizma chizish va chizmani kontrol qilish bosqichlarining hammasi saqlanib qoladi. Marfologik belgilarining o‘ziga xos jihatlari hisoblash formulalarining koeffitsentlarida, erkin xadlarida, shuningdek, konstruktsiyaning turli uchastkalariga oid ustamalarda va chok haqida o‘z aksini topadi.



Standart jussali o‘g‘il bolalarning kiyimlari hamda shimplarining chizmasi va hisobi uchun kerak bo‘ladigan o‘lchov belgilari jadvaldan yoki «O‘g‘il bolalar kiyimlarini konstruktsiyalash metodikasi (SNIIGIP)» dan olinadi va formulalarining koeffitsentlarida, erkin xadlarida, shuningdek, konstruktsiyaning turli uchastkalariga oid ustamalarda va chok haqida o‘z aksini topadi.

Standart jussali o‘g‘il bolalarning kiyimlari hamda shimplarining chizmasi va hisobi uchun kerak bo‘ladigan o‘lchov belgilari jadvaldan yoki «O‘g‘il bolalar kiyimlarini konstruktsiyalash metodikasi (SNIIGIP)» dan olinadi.

O‘g‘il bolalar shortigining konstruktsiya chizmasi

Bichishdan oldin paxta va ipak tolali gazlamalar namlanadi va quritiladi, lekin quritib yubormasdan, ipning bo‘y yo‘nalishida dazmollanadi. Bichilgan, tayyorlangan gazlamani stolga joylashtiriladi. Yakka tartibdagi kiyimlarni tikishda ko‘proq gazlamani buklab, o‘ng tarafi ichkariga qo‘yiladi. Andozalar bu holda yarim bo‘laklarni bajaradi. Gazlamani eni 60-70 sm bo’lsa yoki qiyin rasmi bo’lsa, gazlamani ochib joylashtiriladi. Bu holda andoza sifati bo‘laklar soniga to’g’ri kelishi kerak. Gazlamaga andoza joylashtirilganda ipning bo‘yi yo‘nalishiga va gazlamadagi rasmga ahamiyat berish kerak. Bo‘y yo‘nalishi andozaning asosiy bo‘laklarida yo‘nalishni ipning bo‘yiga joylashtiriladi, chunki eniga bichilsa, bo‘laklar cho‘zilib ketadi. Hamma andoza bo‘laklarda «Bo‘ylama ip» deb belgilanadi, agar ziyi kesilgan bo’lsa ip bo‘yi cho‘zilmaydi, shundan ip bo‘yi yo‘nalishini belgilaydi. Andozani gazlamaga joylashtirish yirik bo‘laklardan (ort bo‘lak, old bo‘lak, yeng, yubka old va ort bo‘lagi). Barcha mayda andaza bo‘laklari yirik bo‘laklarning oralig‘iga joyланади, bunda andazaning bo‘ylama ip yo‘nalishi gazlamaning bo‘ylama ip yo‘nalishi bilan moslashadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. X.N.Komilova N.K.Hamroyeva “Kiyim loyixalash asoslar” Toshkent 2005
2. Hasanboyeva G.K,Krimova O.I“Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash.Toshkent1990
3. WWW.osinka.ru